

Bag'dod tuman "Tashabbusli budjet" 2025 yil 2- mavsumi yuzasidan
Bag'dod tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i ning
MA'RUZASI

Assalomu alaykum, hurmatli G'anijon Sheraliyevich!

Hurmatli deputatlar, sessiya qatnashchilari!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qaroriga asosan Marg'ilon shahrida joriy yilning **15 iyulidan 31 avgustiga** qadar "Tashabbusli budjet" loyixasining 2025 yil 2-mavsumi o'tkazilganligini va mazkur tadbir uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan **22 866,0 mln.so'm** mablag' yo'naltirilgan.

Yo'naltirilgan mablag'lar;

-Tuman budjeti xarajatlarining 5% qismining yarmi **19 118,1 mln.so'm**,

-Daromad rejasini ortirib bagarilgan qismidan 30 % i **487,1 mln.so'm**,

-Oldingi mavsumlardan iqtisod bo'lib qaytgan **3 260,7 mln. so'm** mablag'dan shakllantirildi.

"Tashabbusli budjet" loyixasida jamoatchilik tomonidan ilgari surilgan Bag'dod tumani fuqarolari tomonidan kiritilgan jami 82 ta **76 714,3 mln.so'mlik** takliflar ishchi gurug'i tomonidan o'rganib chiqilib ovoz berish bosqichiga o'tkazildi.

82 ta 76 714,3 mln. so'mlik takliflardan ovoz berish bosqichida "Eng ko'p" ovoz to'plagan 17 ta loyixa:

- Maylaboy MFY ichki ko'chalarini asfatslash
- Bag'dod tumanidagi 24-umumtalim maktabigaqo'shimcha bino qurish.
- Konizar MFY ichki ko'chalarini asfatslash
- Bag'dod tumani Samarqand MFY hududidagi tuman Tibbiyot birlashmasi tasarrufidagi FAP binosini qayta qurish
- Yuksalish MFY ichki ko'chalarini asfatslash
- Samandarak MFY ichki ko'chalarini asfatslash
- Chekmirzabod MFY hududidagi aporalarni almashtirish va sip kabel tortish
- Qirqivolida MFY ichki ko'chalarini asfatslash
- Samandarak MFY pastki mahallasi ichki ko'chalarini asfatslash
- Matqulobod MFY hududidagi aporalarni almashtirish va sip kabel tortish
- Matqulobod MFY ichki ko'chalarini asfatslash
- Bordon MFY ichki ko'chalarini asfatslash
- Dasht MFY ichki ko'chalarini asfatslash
- Ho'jaqishloq MFY ichki ko'chalarini asfatslash
- Samandarak MFY Jiydali mahalli uchun ichimlik suvi uchun quduq qazish
- Sheksaroy MFY ichki ko'chalarini asfatslash
- Dasht MFY yuqori mahallasi ichki ko'chalarini asfatslash loyihalari ovoz berish natijalariga ko'ra eng ko'p ovoz to'plagan xolda g'olib deb topildi.

Shundan,

2025 yil 2- mavsumida barcha **17 ta 22 304,1 mln.so'mlik loyixalar** Qurilish-ta'mirlash bilan bog'liq loyixalarni tashkil etgan;

Jumladan;

- Ichimlik suvi va oqava tizimini yaxshilash bilan bog‘liq tadbirlar bo‘yicha amalga oshirish qiymati **1 110,0 mln.so‘mlik 1 ta** loyiha;

- Ichki yo‘llarni (piyodalar yo‘lakchasi, yo‘l o‘tkazgichlar) ta‘mirlash bilan bog‘liq tadbirlar bo‘yicha amalga oshirish qiymati **15 906,1 mln.so‘mlik 12 ta** loyiha;

- Ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish yoki ta‘mirlash (transformator, simyog‘och o‘rnatish) tadbirlari bo‘yicha amalga oshirish qiymati **2 540,0 mln.so‘mlik 2 ta** loyiha;

- Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta‘mirlash tadbirlari bo‘yicha amalga oshirish qiymati **1 480,0 mln.so‘mlik 1ta** loyiha;

- Umumta‘lim maktablarini ta‘mirlash tadbirlari bo‘yicha amalga oshirish qiymati **1 268,0 mln.so‘mlik 1 ta** loyihalar g‘olib deb topildi.

Hurmatli, **G‘anijon Sheraliyevich**, Hurmatli deputatlar va sessiya qatnashchilari “Tashabbusli budjet” ning 2025 yil 2-mavsum davomida majburiy ovoz to‘plash bilan bog‘liq murojaatlar ishchi komissiyasiga kelib tushmagan, sizlardan g‘olib loyixalarga nisbatan e‘tirozlar bo‘lmasa “Tashabbusli budjet” portalida elektron g‘olib deb topilgan loyixalarni tasdiqlashingizni va moliyalashtirishga ruxsat berishlaringni so‘rayman.

Bag‘dod tuman xokimiining
1-o‘rinbosari, Iqtisodiyot va
moliya bo‘limi boshlig‘i:

U.Mahmudov